

LEGAL TECH TEXNALOGIYALARING YURIST KASBIGA TA'SIRI: IMKONIYATLARI VA XAVFLARI

Bazarbayeva Marjona Jasur qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiyl huquq fakulteti 1-kurs talabasi
bozorboyevamarjona622@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada Legal Tech texnologiyalarning yurist kasbiga tasiri imkoniyatlari va xavflari haqida yoritilgan. Legal Tech texnologiyasi o'zi nima kirib kelishi bilan qanday yangiliklar va qulayliklari va aynan yurist kasbiga qanday foydalari haqida ma'lumotlar aks etgan. Maqolada sun'iy intellekt rivojlanishi bilan turli xil sohalarga olib kelgan foydalari haqida undan noto'g'ri foydalanishda olib keladigan xatarlar haqida tadqiqotlar olib borildi. Sun'iy intellektlar bu darajada rivojlanishiga nima sabab bo'lmoqda? Texnologiyadan foydalanish yuristlar uchun nafaqat yuristlar boshqa soha vakillari uchun ham ish o'rnining kamayishiga olib keladimi? Ushbu savollarga dastur orqali javob olasiz. Bundan taqshqari ma'lumot o'rnida bilib olish kerak O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi 409- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasida "Davlat boshqaruvi va adliya organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'limi" faoliyat yuritmoqda.

Kalit so'zlar: legal tech, sunniy intellekt, texnologiya, axborot texnologiyalari, kom-munikatsiyalari, elektron hukumat, davlat muassasasi, adliya organlari, raqamli texnologiya.

Kirish

“Sunniy intellekt”bu so‘z hech kimga notanish emas,ayniqsa bugungi kunga kelib.Texnologiyalar rivojlangan asrga kelib sun’iy intellekt tushunchasi 7-yoshdan 70-yoshgacha bilib olishgan.Hozirgi kunda texnologik rivojlanish inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bordi.Sohalar haqida gap ketganda huquq sohasini ham esdan chiqarish kerak emas. Texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanar ekan,sun’iy intellekt insoniyat taraqqiyotining eng muhim yutig‘iga aylandi.Yurtimizda bir-qancha qarorlar ham qabul qilindi,shu jumladan:

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLAB-
QUVVATLASH UCHUN MAXSUS REJIM TASHKIL ETISH VA UNING
FAOLIYATINI YO‘LGA QO‘YISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI
TASDIQLASH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son qaroriga muvofiq, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari asosidagi innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko‘rsatish usullarini rivojlantirish uchun qulay va maqbul ekotizim yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son qaroriga muvofiq sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy sharoit yaratish, dasturiy mahsulotlarni tajribadan o‘tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda yengillik yaratish

maqsadida Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejim joriy qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin: sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejimni (keyingi o'rinlarda — maxsus rejim) qo'llash va uning ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish: maxsus rejim ishchi organining faoliyatini tashkil etish, uning asosiy vazifa va funksiyalarini belgilash; talabgorlarni maxsus rejim ishtirokchilari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, ishchi organ tomonidan ariza shakli va talab etiladigan ma'lumotlar ro'yxatini tasdiqlash; maxsus rejim ekspert kengashini tarkibini shakllantirish va faoliyatini yo'lga quyish; maxsus rejim ishtirokchilariga loyihalarni samarali tashkil qilish uchun amaldagi qonunchilik hujjatlarining tegishli normalarini tajriba-sinov loyihalari muddatida istisno qilish; talabgorlarni maxsus rejim tarkibiga kiritish va tarkibidan chiqarish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish; maxsus rejim ishtirokchilarining tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish muddati davomida tashkiliy-huquqiy va konsultativ jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga belgilangan imtiyoz va preferensiyalarni qo'llash; maxsus rejim ishtirokchilariga vakolatli davlat organi tomonidan tegishli faoliyatni amalga oshirishning kamaytirilgan talablari va shartlarini belgilash; ishchi organ tomonidan tashkilotni maxsus rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish va bu haqidagi ma'lumotlarni maxsus rejim ishtirokchilarining yagona reyestriga kiritish.

3. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi: Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda bir oy

muddatda mazkur qaror talablarini inobatga olgan holda maxsus rejim faoliyatini yoʻlga qoʻysin;Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi hamda Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarida mazkur qarorning mohiyati va ahamiyati haqida tematik telekoʻrsatuvlar tashkil qilsin;manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda oʻzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.X. Shermatov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamentiga yuklansin.¹Xalqaro tajribaga nazar tashlaganda, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarda legal tech sohasining keskin rivojlanayotgani koʻzga tashlanadi. Masalan, ROSS Intelligence, Casetext, LegalZoom, DoNotPay kabi tizimlar sunʼiy intellekt yordamida huquqiy maslahat berish, shartnomalar bilan ishlash, sud amaliyotini tahlil qilish, fuqarolarga mustaqil ravishda huquqiy muammolarini hal qilishda yordam berib, anʼanaviy yuristlik faoliyati konseptini oʻzgartirib yubormoqda. Shu bilan birga, legal techning jadal rivojlanishi bir qator dolzarb muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Masalan, shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish, sunʼiy intellektning huquqiy javobgarligi, inson omilining qisqarishi, yangi kasbiy kompetensiyalar zarurati kabi masalalar chuqur ilmiy yondashuvni talab qiladi.Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, legal tech texnologiyalarining yurist kasbiga taʼsirini tizimli ravishda oʻrganish, uning imkoniyatlari va xavflarini

¹ <https://lex.uz/docs/-5746496>
SJIF: 5.051

aniqlash, O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari asoslash zarurdir. Zero huquqiy sohaning raqamlashtirilishi jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqmoqda va ushbu jarayonni to'g'ri tashkillashtirish kelajakdagi professional huquqshunoslarning faoliyatini belgilab beradi.

II. Metodologiya

Ushbu maqolada legal tech texnologiyalarining yurist kasbiga ta'siri tizimli yondashuv asosida tadqiq qilindi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi: Birinchidan, qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali O'zbekiston huquq tizimida raqamlashtirish jarayonlari rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlarida legal tech yechimlarining qo'llanish amaliyoti o'rganildi. Xalqaro va dunyoda mashhur yuridik saytlar: **law.cornell.edu**-Cornell universitetining "Legal Information Institute", AQSH qonunlari uchun eng ishonchli manba, **justia.com**- bepul yuridik hujjatlar, advokatlar ro'yxati, sud amaliyoti, **findlaw.com**-qonun tushunchalari, advokatlar, huquqiy yo'nalishlar bo'yicha maqolalar, **eur-lex.europa.eu** -Yevropa Ittifoqi qonunlari va direktivalari to'plami, **un.org/law** - BMT qonunlari, xalqaro shartnomalar, xalqaro sud ma'lumotlari, **oecd-ilibrary.org** -xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) huquqiy hujjatlari.

Ikkinchidan, tarixiy metod yordamida yuridik sohaga texnologiyalar kirib kelish jarayonining bosqichlari, elektron huquqiy tizimlarning shakllanishi va evolyutsiyasi tahlil qilindi. Mazkur yondashuv legal techning bugungi darajasini anglashga imkon berdi. Uchinchidan, me'yoriy-huquqiy tahlil metodi asosida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida raqamlashtirish siyosati, elektron hukumat, axborot xavfsizligi, intellektual mulk va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq normalar o'rganildi. Jumladan, "Axborotlashtirish

to'g'risida"gi Qonun, "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asos sifatida tanlab olindi. To'rtinchidan, kuzatuv va tahlil metodi qo'llanilib, O'zbekistondagi mavjud legal tech platformalari (Lex.uz, E-Sud, my.gov.uz, my.soliq.uz) faoliyati, foydalanuvchi imkoniyatlari va samaradorligi baholandi. Shu orqali milliy sharoitga mos istiqbolli yo'nalishlar belgilandi. Beshinchidan, ilmiy adabiyotlarni kontent-tahlili usuli asosida xorijiy va mahalliy manbalardagi legal tech tushunchasi, ta'rifi, tasnifi hamda amaliyotdagi muammolar o'rganildi. Mazkur metod yordamida mavzuning nazariy asoslari mustahkamlandi. Metodlar uyg'unligidan foydalanish tadqiqotning ilmiy asoslanganligini oshirdi, natijalarining ishonchliligini ta'minladi va yuridik sohaga texnologiyalar ta'sirini har tomonlama yoritish imkonini berdi.

III. Natijalar

Legal Tech texnologiyalarning huquqiy sohada yaxshi natijalar yuzaga kelmoqda. Tadqiqot davomida ularning eng muhimlari quyidagi guruhlarda jamlangan. **1. Huquqiy xizmatlarning ochiqligi va shaffofligi oshdi.** Elektron hukumat tizimining rivojlanishi fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish jarayonini soddalashtirdi.

"E-SUD"

Axborot tizimi orqali sud jarayonlarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyati yaratildi. Ushbu qo'llanmada E-SUD milliy elektron axborot tizimi to'g'risida umumiy ma'lumot hamda elektron tizimda ishlash tartibi yuzasidan

sudlarga batafsil tushuntirishlar, shuningdek, fuqarolarga mazkur axborot tizimi orqali fuqarolik sudlarga murojaat qilish tartibi bayon etilgan.²

•“Lex.uz”

Lex.uz orqali barcha qonun hujjatlari ommaga ochiq bo‘lib, ularni bepul ko‘rish imkoniyati mavjud. Bu esa huquqiy ma’lumotlarning yashirin qolishiga yo‘l qo‘ymaydi va korrupsiyaga qarshi kurashda samarali vositadir. **2. Ish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va soddalashuvi:** Legal tech huquqiy hujjatlarni tayyorlash, saqlash va qayta ishlash jarayonini tezlashtirdi. Har bir fuqaro o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi mumkin.³ Yuridik va jismoniy shaxslar o‘zlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanish, mazkur ma’lumotlarning to‘liqligi hamda to‘g‘riligini ta’minlash maqsadida ularga aniqliklar kiritish huquqiga ega. O‘zlari to‘g‘risidagi

ma’lumotlarni ichiga olgan axborot resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi qonun bilan cheklanishi mumkin.⁴ Advokatlar, yuridik firmalar va sudlar elektron hujjat aylanishi orqali qog‘ozbozlikni kamaytirmoqda. Xalqaro amaliyotda, masalan, Clio, Casetext, Legito platformalari shartnomalar avtomatik yaratilishi va hujjatlar tasnifini amalga oshirmoqda. Natija: vaqt tejaladi, huquqshunoslar ko‘proq analitik vazifalarga e’tibor qaratish imkoniga ega bo‘ladi.

3. Huquqiy yordamning jamoatchilik uchun qulaylashishi: Avvallari yurist yordamisiz huquqiy muammolarni hal qilish deyarli imkonsiz bo‘lgan. Hozir esa: “**my.gov.uz**” orqali murojaatlar, arizalar elektron ravishda

² <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/e-sud-milliy-elektron-sudlov-axborot-tizimi-foydalanuvchilar-uchun-amaliy-qollanma>.

³ <https://lex.uz/mact/-83472>.

⁴ <https://lex.uz/mact/-83472>.

yo‘llanmoqda. **“DoNotPay”** kabi sun‘iy intellekt chatbotlari jarimalarni bekor qilish, shikoyat yuborish, pullarni qaytarish bo‘yicha yordam ko‘rsatadi. Bu aholining huquqiy ongini oshirishga xizmat qiladi.

DocuSign

Bu elektron imzo qo‘yish bo‘yicha global yetakchi bo‘lib, u qonuniy hujjatlarni imzolash va boshqarish uchun elektron usullarni taqdim etadi. Bu butun dunyo bo‘ylab 180 dan ortiq mamlakatda 1 milliarddan ortiq foydalanuvchi bilan birgalikda deyarli istalgan joydan kelishuvlarni elektron tarzda imzolash imkonini beradi. Uning yordamida hujjatlarni yuborish, imzolash va biznesni qisqa vaqt ichida yakunlash mumkin.

AQSHda ROSS Intelligence, Casetext CoCounsel kabi tizimlar sud amaliyotiga asoslangan huquqiy yechimlarni soniyalar ichida taqdim qilmoqda. Qonun va sud qarorlarini tezkor qidirish, moddalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash, Prognozlash va tavsiyalar berish. Kelajakda bunday tizimlar yuristlarning doimiy yordamchisiga aylanishi kutiladi.

Legal tech huquqiy xizmatlar narxini sezilarli darajada pasaytiradi. Mazkur holat quyidagi omillar orqali namoyon bo‘ladi: inson resurslariga talabning kamayishi, vaqt va moliyaviy xarajatlarning qisqarishi, jarayonlarning avtomatlashtirilishi. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, sun‘iy intellekt yordamida bajariladigan yuridik tahlil jarayonlari an‘anaviy usulga nisbatan 40–60 foiz tejamkorlikka erishmoqda. Bu aholining turli qatlamlari uchun ham huquqiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

Raqamli platformalar orqali davlat organlari bilan muloqot soddalashti. Masalan: fuqarolar murojaatlari elektron tarzda qayd qilinadi, ular bo‘yicha javoblar tezroq taqdim etiladi, murojaatning yuritilishi ustidan nazorat kuchayadi. Bu

hukumat faoliyatiga ishonchni oshiradi hamda davlat boshqaruvidagi byurokratik to'siqlarni kamaytiradi.

Elektron tizimlar adolatga tezroq erishish imkonini beradi, arizalar kechiktirmay qabul qilinadi, dalillarni taqdim etish oddiyroq bo'ladi, masofadan turib ishtirok etish imkoniyati mavjud. Ma'lumotlar natija shuni bilish mumkingi raqamli texnologiya, sun'iy intellekt nafaqat yurist kasbiga boshqa sohalarda ham qulaylik olib kelganini bilishimiz mumkin. AI qanday qilib yirik yuridik firmalarning kelajagini shakllantirishi mumkin. Sun'iy intellekt (AI) huquq sohasini o'zgartiruvchi kuch sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Yirik yuridik firmalar uchun sun'iy intellekt vositalarini qo'llash yuqori samaradorlik, yangi imkoniyatlar va mijozlarning yaxshilangan natijalarini va'da qiladi. Biroq, bu imtiyozlar, xususan, yuridik firma daromadlarining asosini tashkil etuvchi hisob-kitob soati modeliga nisbatan qiyinchiliklar bilan birga keladi. Mantiq oddiy: hisob-kitob qilinadigan soatlik biznes modelining ustunligi bilan (to'lov kelishuvlarining kamida 80 foizini tashkil qiladi), unumdorlikning sezilarli darajada oshishi ushbu firmalarning daromadlari va foydalariga tahdid soladi. Ushbu tadqiqot AmLaw100 firmalarining sun'iy intellektni o'z faoliyatiga integratsiyalashuvi bo'yicha istiqbollari, ularning biznes modellariga ta'sirini va yuridik sohaga kengroq ta'sirini o'rganadi. Yirik yuridik firmalar sun'iy intellektni qo'llashga qanday yaqinlashayotganini tushunish uchun ushbu tadqiqot o'nta AmLaw100 firmasidan Aini qo'llash uchun mas'ul bo'lgan bosh operatsion direktorlar va hamkorlar bilan sifatli suhbatlarga tayanadi. Ushbu intervyular sun'iy intellektni amalga oshirish strategiyalari, operatsion tayyorgarlik va mijozlar bilan hamkorlik qilish haqida tushuncha beradi. Topilmalar Aining mahsuldorlikka, daromad modellariga va firma rentabelligiga ta'siri bo'yicha bir qator istiqbollarni aks ettiradi. Maxfiylik va

raqobatbardosh muammolarni tan olgan holda, firmalarga javoblarida anonimlik taklif qilindi. Bir nechta sohalar o'rganildi: Aini qo'llashdan firmaga umumiy ta'sirning kattaligi, Sun'iy intellektdan foydalanish natijasida kutilayotgan samaradorlik oshadi va bu o'sishdan moliyaviy foyda (firma va mijozlar), AI imkoniyatlarini moslashtirish uchun daromad va foyda modellarida zarur o'zgarishlar, AI takomillashtirilgan yuridik firma uchun kutilayotgan kadrlar o'zgarishi (advokatlar va yordamchi guruhlar). AIga zarur investitsiyalarni moliyalashtirish. Quyida keltirilgan barcha iqtiboslar AmLaw100 firmalarining bosh operatsion direktorlari va hamkorlari bilan suhbatdan olingan.

IV. Muhokama

Donishmandlar aytganidek, tanganing ikkinchi tomonini ham ko'ra bilish kerak. Raqamli texnologiyalarning yuridik sohada qo'llash jarayonida har doim ham ijobiy natijalar beravermaydi. Qiyinchiliklar va cheklovlar qolmoqda. Shunga qaramay, qonunda sun'iy intellektdan foydalanish ko'plab cheklovlarga duch kelmoqda, ularning hammasi ham texnik emas. Aksariyat AI tizimlari tahlil qilish uchun sud ma'lumotlariga kirish huquqiga tayanadi. Biroq, ushbu ma'lumotlarga keng qamrovli tarzda ommaviy kirish qiyinligicha qolmoqda. Texnik jabhada ishlarning tuzilishini avtomatik aniqlash (masalan, xulosani aniqlash) va nizomlar mantiqini kodlash kabi asosiy muammolar saqlanib qolmoqda. Yuridik firmalar odatda ixtisoslashgan dasturiy ta'minot kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan dasturlardan foydalanadilar. Noto'g'ri yoki samarasiz dasturiy ta'minotni erta qabul qilish noto'g'ri yoki etarli bo'lmagan natijalarga olib kelishi mumkin. AI huquqiy tizimga qanday ta'sir qiladi? AI qonunning o'ziga "huquqiy o'ziga xoslik" g'oyasini, talqin qilish zarurati huquqiy savollarga javoblardan olib tashlanishi mumkin degan tushunchani qo'llab-quvvatlash orqali ta'sir qilishi

mumkin. Ba'zilar, agar sun'iy intellektni qo'llash bilan mexanik ravishda oldingi dalillarga asoslanib qolsa, qonun o'z rivojlanish qobiliyatini yo'qotib qo'yishi mumkinmi, degan xavotirda. Yana bir xavf yuridik va dasturiy ta'minot muhandisligi ko'nikmalarini talab qiluvchi auditni amalga oshirish bilan bog'liq. Qonunning darvozabonlari (advokatlar/sudyalar/qonunchilar) odatda kodni o'qish bo'yicha mutaxassis bo'lmaydilar va dasturiy ta'minot muhandislari odatda qonunni sharhlash bo'yicha mutaxassis bo'lmaydi. Bu texnologiyaning shaffofligi va monitoringi masalasini ko'taradi. Ammo sug'urtachilarga eng katta to'g'ridan-to'g'ri ta'sirlardan biri advokatlarning muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yuqori bo'lgan da'volar/ishlarni nolga kiritish uchun yuridik texnologiya tizimlaridan foydalanishi bo'lishi mumkin. Bu barcha uchun adolatni ta'minlashning qonuniy maqsadiga zid bo'lishi mumkin, shuningdek, da'volar yukining sezilarli darajada oshishiga olib kelishi mumkin.⁵ Raqamli transformatsiya jarayonida quyidagi dolzarb muammolar aniqlanmoqda: Huquqiy mas'uliyat muammosi: Sun'iy intellekt yordamida qabul qilingan qarorlarda noto'g'ri xulosa chiqarilsa, javobgarlik kimga yuklatilishi hamon aniq belgilanmagan. Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi: Kiberhujumlar va maxfiy ma'lumotlarning tarqalishi ehtimoli yuqori. Texnik tengsizlik: Aholining barcha qatlamlari ham internet va qurilmalar bilan bir xil darajada ta'minlanmagan. Kasbiy kompetensiyalar masalasi: An'anaviy yuridik ta'lim texnologik bilimlar bilan uyg'unlashtirilmayapti. Yuristlar zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishda qiynalishi kuzatilmoqda. Bizning hayotimizga qancha raqamli texnologiyalar kirib kelmasin u insondek, mutaxassisdek bo'la o'lmaydi. Inson taqdirini sun'iy intellektga topshirib bo'lmaydi. Innovatsion

⁵ <https://www.swissre.com/institute/research/sonar/sonar2022/legal-technology.htm>.

texnologiyalar huquqiy sohada o'z o'rnini tobora mustahkamlab borayotgan bo'lsa-da, ularni joriy qilishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, malaka oshirish tizimini kuchaytirish, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish tamoyillariga qat'iy amal qilish zarur. Zero, texnologiya faqat inson manfaatiga xizmat qilgandagina ijobiy natija beradi. Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish yutuqlaridan tashqari ayrim xavflar va to'siqlar ham mavjud. Shu bois, mazkur tizimni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Ijobiy jihatlar tahlili: Yuridik ma'lumotlarga keng va tezkor kirish imkoniyati yaratildi. Sud jarayonlarining shaffofligi kuchaydi, fuqarolarning adolatga ishonchi oshmoqda. Hujjat ayirboshlashning avtomatlashtirilishi davlat xizmatlarining tezligi va aniqligini ta'minlamoqda. Yuristlar uchun sun'iy intellekt vositalari yuridik amaliyotni chuqur tahlil qilishga yordam bermoqda. Muammolar va xavflar: Sun'iy intellekt qarorlari bo'yicha javobgarlik aniq belgilab qo'yilmagan. Kiberxavfsizlik darajasi yetarli bo'lmagani uchun shaxsiy ma'lumotlar xavf ostida qolishi mumkin. Aholining texnik imkoniyatlari teng emasligi natijasida ba'zi fuqarolar huquqiy xizmatlardan chetda qolmoqda. Amaliy takliflar: Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: Sun'iy intellekt orqali qabul qilinadigan qarorlar, ma'lumotlar muhofazasi bo'yicha aniq va batafsil huquqiy tartiblar ishlab chiqilishi lozim. Yuridik ta'limga raqamli modullarni joriy qilish: Oliy ta'lim muassasalarida Legal Tech bo'yicha maxsus fanlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish kelajak yuristlari uchun juda muhim. Kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish: Davlat organlari va xususiy sektorda raqamli himoya vositalari zamonaviy talablarga mos ravishda mustahkamlanishi shart. Qulay interfeys va inklyuziv tizimlar yaratish: Nogironligi bo'lgan shaxslar, texnologiyadan uncha foydalana olmaydigan

qatlamlar uchun soddalashtirilgan, audio va vizual yordamchi imkoniyatlar bilan boyitilgan platformalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Yuristlar malakasini doimiy oshirish: Kasbiy rivojlanish markazlari orqali texnik treninglar, sertifikatlash tizimlari yoʻlga qoʻyilishi kerak. Har bir soha ishining ustasi u nafaqat yurist boshqa soha vakillari ham oʻzining texnik bilimlari oshirib borishi zarur va shart.

V. Xulosa

Yuristlar kasbida Legal Tech texnologiyalarining qoʻllanilishi bugungi globallashuv va axborot asrida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Oʻzbekistonda huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish huquqiy tizimni isloh qilish, adolatning tez va shaffof taʼminlanishi, huquqiy jarayonlarning samaradorligini oshirishga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Legal Tech vositalari fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirdi, yuristlarning kasbiy mahoratini yangi bosqichga olib chiqmoqda, hujjat aylanishi, sud amaliyoti, huquqiy maslahat berish jarayonlarini avtomatlashtirishga erishilmoqda. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish, sunʼiy intellekt qarorlari boʻyicha javobgarlik kabi muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Maqolada ilgari surilgan takliflarni bosqichma-bosqich hayotga tatbiq qilish, xususan: normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, raqamli huquqiy taʼlimni rivojlantirish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, yuristlar malakasini muntazam oshirib borish, kelajakda huquqiy tizimning raqamli taraqqiyotini taʼminlaydi va Legal Techʼning barcha imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish imkonini yaratadi. Natijada, huquqiy xizmatlarning sifatli, ochiq va samarali boʻlishi yoʻlida keng imkoniyatlar yuzaga

keladi. Mazkur yangilanishlar O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat barpo etish maqsadlariga hamohang ravishda ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021-yil 26-avgust). Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida [650-son qaror]. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/5630107>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2003). O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni (2003-yil 11-dekabr, O‘RQ–560). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/276058>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2005). “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonun (2005-yil 29-aprel, O‘RQ–71). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/57496>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2020). “Raqamli iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yil 15-iyul, O‘RQ–630). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4919781>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Yuridik yordam va xizmatlar sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4812-son qaror. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4861343>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2022). Legal Tech tizimlarini joriy etish bo‘yicha yo‘riqnoma loyihasi. <https://minjust.uz>.

7. Abdurahmonov, B. (2023). Huquqiy texnologiyalar va ularning O'zbekiston qonunchiligidagi aks etishi. "Yangi O'zbekiston" ilmiy jurnali, 2(4), 45–52.